Аннотация. В данной статье исследованы приоритетные направления совершенствования инвестиционного климата в Узбекистане посредством финансовой поддержки молодёжного предпринимательства, совершенствования деятельности специальных экономических зон, экономически обоснованного создания новых промышленных зон, а также механизмов поэтапного укрупнения субъектов малого бизнеса. В исследовании обоснованы предложения по направлению не менее 40 процентов кредитов в рамках программы семейного предпринимательства на поддержку молодёжного предпринимательства, отмене ограничений по срокам функционирования специальных экономических зон, созданию новых зон на землях несельскохозяйственного назначения на основе инфраструктуры, бизнес-планов и мастер-планов, а также предоставлению беззалоговых кредитов укрупняющимся субъектам предпринимательства.

Ключевые слова: инвестиционный климат, инвестиционная привлекательность, молодёжное предпринимательство, специальная экономическая зона, малый бизнес, беззалоговый кредит, инфраструктура, бизнес-план.

Abstract. This article examines the priority directions for improving the investment climate in Uzbekistan through financial support for youth entrepreneurship, enhancement of special economic zones, economically justified establishment of new industrial zones, and gradual scaling-up mechanisms for small business entities. The study substantiates proposals to allocate at least 40 percent of loans provided under the Family Entrepreneurship Program to youth entrepreneurship, abolish time limitations on the operation of special economic zones, establish new zones on non-agricultural land based on infrastructure, business plans, and master plans, and provide unsecured loans to expanding business entities.

Keywords: investment climate, investment attractiveness, youth entrepreneurship, special economic zone, small business, unsecured loan, infrastructure, business plan.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida kapital oqimlari uchun raqobat tobora kuchayib borayotgan sharoitda investitsiya muhitining jozibadorligi mamlakatlarning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Investitsiya muhiti investorlar faoliyati uchun yaratilgan iqtisodiy, huquqiy, institutsional hamda infratuzilmaviy shart-sharoitlar majmuasini anglatadi. Mazkur muhit qanchalik barqaror, ochiq va qulay bo'lsa, ichki hamda xorijiy investorlarning mamlakat iqtisodiyotiga kapital kiritish faolligi shunchalik ortadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda investitsiya muhitini yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish hamda kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, investitsiya muhitining jozibadorligi nafaqat xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan imtiyozlar, balki mahalliy tadbirkorlik ekotizimining rivojlanganligi, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari, infratuzilma sifati hamda huquqiy barqarorlik darajasi bilan ham belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 493,7 trln so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 127,6 foizga yetgan. 2020-yilda ushbu ko'rsatkich 210,2 trln so'mni tashkil etgan. Natijada 2020-2024-yillarda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi qariyb 2,35 barobarga oshgan [8].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish hamda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish masalalari xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan.

J.H. Dunning tomonidan ishlab chiqilgan eklektik paradigma, ya'ni OLI modeli xalqaro investitsiyalarni tushuntirishda muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Olimning fikriga ko'ra, investitsiya qarorlariga mulkchilik afzalliklari, joylashuv afzalliklari hamda ichkilashtirish afzalliklari ta'sir ko'rsatadi [1]. Joylashuv afzalliklari tarkibiga infratuzilma rivojlanganligi, bozor hajmi, soliq rejimi, siyosiy-huquqiy barqarorlik va institutsional sharoitlar kiradi. Mazkur yondashuv O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarini rivojlantirish hamda investorlar uchun barqaror investitsiya muhitini yaratish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

M. Porter investitsiya muhitini hududlar va tarmoqlarning raqobatbardoshligi bilan uzviy bog'laydi. Uning klasterlar nazariyasiga ko'ra, korxonalar, yetkazib beruvchilar, ilmiy-ta'lim muassasalari hamda davlat institutlari o'rtasida samarali hamkorlik shakllangan hududlarda raqobatbardoshlik darajasi yuqori bo'ladi [2]. Ushbu yondashuv O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalar va sanoat hududlarini klaster tamoyillari asosida rivojlantirish muhimligini ko'rsatadi.

H. De Soto investitsiya muhitining muhim sharti sifatida mulk huquqlarining rasmiylashtirilishi va aktivlarning kapitalga aylanish imkoniyatini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, norasmiy iqtisodiyotdagi aktivlar kreditlash va investitsiya jarayonlarida to'liq ishtirok eta olmaydi [3]. Mazkur yondashuv o'zini o'zi band qilgan shaxslarni rasmiy tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish hamda ularga garovsiz kreditlar ajratish mexanizmlarini nazariy jihatdan asoslaydi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.V. Vahobov va T.S. Malikov moliyaviy resurslarni samarali safarbar etish hamda ularni ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri ekanligini ta'kidlaydi [4]. Ushbu yondashuv oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasidagi kreditlarning kamida 40 foizini yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga yo'naltirish taklifi bilan uzviy bog'liqdir.

Sh.Sh. Shodmonov bozor iqtisodiyotining samarali faoliyat yuritishi uchun tadbirkorlik erkinligi, sog'lom raqobat muhiti, mulkchilik shakllarining xilma-xilligi hamda iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarining muhimligini qayd etadi [5]. Mazkur yondashuv yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish va investitsion faollikni oshirish zarurligini asoslaydi.

B.Yu. Xodiyevning ilmiy-uslubiy qarashlarida bozor infratuzilmasini rivojlantirish, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini samarali tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [6]. Ushbu yondashuv yangi iqtisodiy va sanoat zonalarini biznes-reja hamda master-reja asosida tashkil etish taklifiga mos keladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, investitsiya muhitini yaxshilash huquqiy barqarorlik, infratuzilma sifati, moliyalashtirish imkoniyatlari, tadbirkorlik erkinligi hamda hududiy raqobatbardoshlik darajasi bilan bevosita bog'liqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida tizimli tahlil, statistik tahlil, taqqoslash hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Mazkur metodlar orqali investitsiya muhitini yaxshilashning ustuvor yo'nalishlari, tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining samaradorligi ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

Mantiqiy umumlashtirish usuli asosida maqolada ilgari surilgan ilmiy takliflarning iqtisodiy mazmuni, amaliy ahamiyati hamda ularning investitsion faollikni oshirishdagi o'rni asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyotida investitsion faollik so'nggi yillarda izchil o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Bu holat, avvalo, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining ortib borayotganida yaqqol namoyon bo'ladi. Mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar investitsion jarayonlarning faollashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda (1-jadval).



1-jadval

O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi [8]

| Yil | Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, trln so'm | O'sish sur'ati, % |
|----------|---------------------------------------------------|-------------------|
| 2020–yil | 210,2 | 95,6 |
| 2021–yil | 239,6 | 102,9 |
| 2022–yil | 266,2 | 100,2 |
| 2023–yil | 356,1 | 123,4 |
| 2024–yil | 493,7 | 127,6 |

1–jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2024–yillarda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 210,2 trln so'mdan 493,7 trln so'mga qadar oshgan. Mazkur holat mamlakatda investitsion faollikning oshib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, investitsiyalar hajmining o'sishi ularning iqtisodiy samaradorligi, hududlar kesimidagi muvozanatli taqsimoti hamda kichik biznes subyektlariga yetib borish darajasi bilan uyg'un holda rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar tadbirkorligi investitsiya muhitining muhim ichki harakatlantiruvchi omillaridan biri sifatida iqtisodiyotda innovatsion faollikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Yoshlar biznesi yangi g'oyalar, raqamli texnologiyalar va zamonaviy xizmatlarni joriy etish orqali iqtisodiy rivojlanishning muhim manbalaridan biri bo'lib bormoqda. Shu bilan birga, yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan moliyaviy mexanizmlar, imtiyozli kredit dasturlari hamda startap tashabbuslarini rag'batlantirish tizimlari ularning biznes faoliyatini yanada kengaytirish uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda. Natijada yoshlar tadbirkorligi mamlakat investitsion jozibadorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu munosabat bilan yoshlar o'rtasida tadbirkorlik faoliyatini keng ommalashtirish hamda ularning biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 40 foizini yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga yo'naltirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Mazkur taklif quyidagi jihatlar bilan asoslanadi: kredit resurslarining maqsadli kvotalanishi yoshlar tadbirkorligini tizimli moliyalashtirish imkonini yaratadi; yoshlar bandligini oshirishga xizmat qiladi; hududlarda kichik ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatining rivojlanishiga qo'shimcha turtki beradi (2-jadval).

2-jadval

Yoshlar tadbirkorligiga kreditlarning kamida 40 foizini yo'naltirishning iqtisodiy asoslari [3; 9]

| Asoslash mezon | Mavjud holat | Taklif etilayotgan yechim | Kutilayotgan natija |
|----------------------------|----------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------|
| Moliyalashtirish | Boshlang'ich kapital yetishmovchiligi mavjud | Kreditlarning kamida 40 foizini yoshlar biznesiga yo'naltirish | Yoshlar biznes loyihalari soni ortadi |
| Garov ta'minoti | Yosh tadbirkorlarda garov ta'minoti cheklangan | Imtiyozli va garovsiz kreditlar ko'lamini kengaytirish | Biznes faoliyatini boshlash imkoniyatlari ortadi |
| Bandlik | Yoshlar bandligini ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi | Yoshlar biznesini tizimli qo'llab-quvvatlash | O'zini o'zi band qilish darajasi oshadi |
| Hududiy rivojlanish | Chekka hududlarda tadbirkorlik faolligi nisbatan past | Mahallalarda yoshlar loyihalarini moliyalashtirish | Hududlarda investitsion faollik kuchayadi |



1–rasm. Yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirishning investitsiya muhitiga ta'siri

Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiyalarni jalb qilish, zamonaviy texnologiyalarni iqtisodiyotga joriy etish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda hududlarni sanoatlashtirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. “Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida”gi Qonunda maxsus iqtisodiy zonalar chet el va mahalliy investitsiyalarni, yuqori texnologiyalarni hamda ilg'or boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tashkil etiladigan alohida huquqiy rejimga ega hudud sifatida belgilangan [10].

Mamlakatda investitsiya muhiti jozibadorligini yanada oshirish hamda investitsiyalarni o'zlashtirish samaradorligini kuchaytirishda maxsus iqtisodiy zonalarning rolini faollashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, maxsus iqtisodiy zonalar faoliyat ko'rsatish muddatiga oid cheklovlarni bekor qilish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyat muddatiga qo'yilgan cheklovlarning bekor qilinishi investorlar uchun uzoq muddatli huquqiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Chunki yirik sanoat va infratuzilma loyihalari, odatda, uzoq muddatli kapital aylanish davriga ega bo'ladi. Shu bilan birga, 2024–yil 5–dekabrda qabul qilingan O'RQ–1010–son Qonun¹ bilan maxsus iqtisodiy zonalarni boshqarish tizimini soddalashtirishga qaratilgan o'zgartirishlarning kiritilishi ushbu yo'nalishning dolzarbligini yanada kuchaytiradi [11] (3-jadval).

3-jadval

Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyat muddatini cheklamaslikning iqtisodiy asoslari [10; 11]

| Muammo | Mavjud holatga ta'siri | Taklif etilayotgan yechim | Kutilayotgan samara |
|-------------------------------|-------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------|-------------------------------------|
| Muddat cheklovi | Investorlarning uzoq muddatli rejalashtirishida noaniqlik yuzaga keladi | MIZ faoliyat muddatiga oid cheklovlarni bekor qilish | Huquqiy barqarorlik darajasi oshadi |
| Kapital aylanish davri | Yirik loyihalar uzoq muddatda yuqori samaradorlik beradi | Uzoq muddatli kafolat mexanizmlarini kuchaytirish | Strategik investorlar oqimi ortadi |

1 O'zbekiston Respublikasining 2024–yil 5–dekabrda O'RQ–1010–son Qonuni <https://lex.uz/uz/docs/-/7249426>



| Infratuzilma xarajatlari | Xarajatlarning qisqa muddatda qoplanishi murakkablashadi | MIZlarni doimiy rivojlanish hududi sifatida shakllantirish | Investitsiya samaradorligi oshadi |
|---------------------------|-------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------|---------------------------------------------|
| Eksport salohiyati | Qisqa muddatli rejalashtirish cheklovlarni yuzaga keltiradi | Barqaror maxsus huquqiy rejimni shakllantirish | Eksportbop ishlab chiqarish hajmi kengayadi |

Investitsiya muhitining jozibadorligi infratuzilma sifati bilan bevosita bog'liqdir. Elektr energiyasi, gaz, suv ta'minoti, avtomobil yo'llari, logistika hamda aloqa tarmoqlari yetarli darajada rivojlanmagan hududlarda investorlarning qo'shimcha xarajatlari ortadi, loyiha qiymati oshadi va investitsiya samaradorligi pasayadi.

Shu sababli yangi maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini infratuzilma mavjud bo'lgan yoki uni yaratish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblangan hududlarda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda biznes-reja, moliyaviy samaradorlik hisob-kitoblari, master-reja hamda qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer maydonlaridan foydalanish asosiy mezonlar sifatida belgilanishi lozim.

Mazkur yondashuv investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, davlat mablag'laridan oqilona foydalanish hamda hududlarni kompleks rivojlantirish imkonini beradi (4-jadval).

4-jadval

Yangi maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini tashkil etish mezonlari [10]

| Mezon | Mazmuni | Investitsion ahamiyati |
|---------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------|
| Infratuzilma mavjudligi | Elektr energiyasi, gaz, suv, yo'l va logistika tarmoqlarining mavjudligi | Investor xarajatlari kamayadi |
| Iqtisodiy asoslanganlik | Xarajatlar va kutilayotgan investitsiya hajmining o'zaro taqqoslanishi | Davlat mablag'laridan samarali foydalaniladi |
| Biznes-reja | Bozor sig'imi, xarajatlar, daromad va rentabellik ko'rsatkichlarining hisob-kitobi | Loyiha barqarorligi ta'minlanadi |
| Master-reja | Hududiy joylashuv va ishlab chiqarish yo'nalishlarining aniq belgilanishi | Tartibsiz qurilishlarning oldi olinadi |
| Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar | Sanoat loyihalarini unumdor qishloq xo'jaligi yerlaridan tashqarida joylashtirish | Yer resurslaridan oqilona foydalanish ta'minlanadi |



3-rasm. Yangi zonalarni tashkil etish modeli

Mazkur yondashuv "avval yer ajratish — keyin infratuzilma izlash" tamoyilidan voz kechib, "avval iqtisodiy asoslash — keyin zona tashkil etish" tamoyiliga bosqichma-bosqich o'tishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, infratuzilma xarajatlarini optimallashtirish hamda hududiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik investitsiya muhitining muhim ichki subyektlari hisoblanadi. O'zini o'zi band qilgan shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor, mikrofirmam hamda kichik korxonam o'rtasida uzluksiz rivojlanish zanjirini shakllantirish rasmiy bandlik darajasining oshishiga, soliq tushumlarining ko'payishiga hamda mahalliy

investitsion faollikning kuchayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Garov ta'minotini kengaytirishga qaratilgan mexanizmlar kichik tadbirkorlik subyektlarining kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o'z faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirayotgan tadbirkorlar uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish biznes faolligini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida 50 mln so'mgacha hamda Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash kompleks dasturi doirasida 150 mln so'mgacha garovsiz kreditlar ajratish tadbirkorlik subyektlarining investitsion imkoniyatlarini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy faollikni oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur mexanizm kichik biznes subyektlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, ularning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash hamda investitsion faolligini oshirishga xizmat qiladi (5-jadval).

5-jadval

Garovsiz kreditlar orqali tadbirkorlik subyektlarini yiriklashtirish modeli [6; 12; 13]

| Bosqich | Asosiy muammo | Moliyaviy yechim | Kutilayotgan natija |
|--------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------|------------------------------------------------------|
| O'zini o'zi band qilgan shaxs | Boshlang'ich kapital yetishmovchiligi | 50 mln so'mgacha garovsiz kredit ajratish | Yakka tartibdagi tadbirkorlikka o'tish |
| Yakka tartibdagi tadbirkor | Aylanma mablag'larni kengaytirish tadbirkorlik faoliyatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi | Imtiyozli kreditlar va biznes maslahat xizmatlari | Mikrofirma tashkil etilishi |
| Mikrofirma | Jihoz va texnologiya xarajatlarining yuqoriligi | 150 mln so'mgacha garovsiz kredit ajratish | Kichik korxonaga aylanish |
| Kichik korxonaga | Bozor va eksport faoliyatini kengaytirish uchun moliyaviy resurslar zarurligi | MIZ va sanoat zonalari imkoniyatlaridan foydalanish | Investitsion faol tadbirkorlik subyekti shakllanishi |

Mazkur mexanizm kichik biznes subyektlarining bosqichma-bosqich yiriklashishiga, ularning rasmiy iqtisodiyotga integratsiyalashuviga hamda investitsion faolligining oshishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilashning ustuvor yo'nalishlari o'zaro uzviy bog'liqdir. Yoshlar tadbirkorligi, kichik biznes, maxsus iqtisodiy zonalar, infratuzilma hamda garovsiz kreditlash mexanizmlari yagona investitsion ekotizimni shakllantiruvchi muhim omillar hisoblanadi.

Oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasidagi kreditlarning kamida 40 foizini yoshlar tadbirkorligiga yo'naltirish investitsiya muhitining ijtimoiy bazasini kengaytirishga xizmat qiladi. Natijada yoshlar nafaqat ish izlovchi, balki yangi ish o'rinlarini yaratuvchi faol iqtisodiy subyektga aylanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyat muddatiga oid cheklovlarni bekor qilish investorlar uchun uzoq muddatli huquqiy barqarorlikni ta'minlaydi. Bu esa strategik va uzoq muddatli investitsiya loyihalarini jalb etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi zonalarni infratuzilma, biznes-reja va master-reja asosida tashkil etish davlat resurslaridan samarali foydalanish, investitsiya loyihalari rentabelligini oshirish hamda foydalanilmay qoladigan sanoat hududlari paydo bo'lishining oldini olish imkonini beradi.

Yiriklashib borayotgan tadbirkorlik subyektlariga garovsiz kreditlar ajratish esa kichik biznesning uzluksiz "o'sish zanjiri"ni shakllantiradi. Mazkur mexanizm o'zini o'zi band qilgan shaxsdan kichik korxonagacha bo'lgan bosqichlarda tadbirkorlik subyektlari uchun qo'shimcha moliyaviy imkoniyatlar yaratadi (6-jadval).

6-jadval

To'rtta ilmiy yangilikning investitsiya muhitiga ta'siri

| Ilmiy yangilik | Bevosita ta'sir | Bilvosita ta'sir | Investitsion natija |
|----------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------|---------------------------------------------------|----------------------------------------------------|
| Kreditlarning 40 foizini yoshlar tadbirkorligiga yo'naltirish | Yoshlar biznesi moliyaviy qo'llab-quvvatlanadi | Bandlik va aholi daromadlari oshadi | Ichki investitsion faollik kuchayadi |
| MIZ faoliyat muddatiga oid cheklovlarni bekor qilish | Investorlar uchun barqaror huquqiy muhit yaratiladi | Uzoq muddatli investitsiya loyihalari soni ortadi | Investitsiyalar hajmi ko'payadi |
| Yangi zonalarni infratuzilma va reja asosida tashkil etish | Resurslardan samarali foydalanish ta'minlanadi | Hududiy rivojlanish muvozanatlashadi | Investitsiya loyihalari rentabelligi oshadi |
| Garovsiz kreditlar ajratish | Tadbirkorlik subyektlarining yiriklashuvi jadallashadi | Soliq bazasi va yangi ish o'rinlari kengayadi | Kichik biznes investitsion faol subyektga aylanadi |



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash iqtisodiy islohotlarning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining 2020–yildagi 210,2 trln so'mdan 2024–yilda 493,7 trln so'mga qadar oshgani mamlakatda investitsion faollikning izchil kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, investitsiyalar samaradorligini yanada oshirish uchun ularni yoshlar tadbirkorligi, kichik biznes, hududiy infratuzilma hamda maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati bilan uzviy bog'liq holda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Birinchidan, oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasidagi kreditlarning kamida 40 foizini yoshlar tadbirkorligiga yo'naltirish yoshlar bandligini oshirish, ularning biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda ichki investitsion faollikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, maxsus iqtisodiy zonalar faoliyat muddatiga oid cheklovlarni bekor qilish investorlar uchun uzoq muddatli huquqiy barqarorlikni ta'minlaydi va strategik investitsiyalar oqimini kengaytiradi.

Uchinchidan, yangi maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini infratuzilma, biznes-reja hamda master-reja asosida, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer maydonlarida tashkil etish investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, faoliyatini kengaytirayotgan tadbirkorlik subyektlariga 50 mln so'mgacha hamda 150 mln so'mgacha garovsiz kreditlar ajratish kichik biznesning uzluksiz "o'sish zanjiri"ni shakllantirish imkonini beradi.

Umuman olganda, investitsiya muhitini yaxshilash yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, kichik biznes subyektlarini bosqichma-bosqich yiriklashtirish, maxsus iqtisodiy zonalarini takomillashtirish hamda investorlar uchun barqaror huquqiy va institutsional sharoitlarni yaratish bilan bevosita bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dunning J.H. The Eclectic Paradigm of International Production: A Restatement and Some Possible Extensions // Journal of International Business Studies. — 1988. — Vol. 19, № 1. — P. 1–31.
2. Porter M.E. Clusters and the New Economics of Competition // Harvard Business Review. — 1998. — November–December.
3. De Soto H. The Mystery of Capital: Why Capitalism Triumphs in the West and Fails Everywhere Else. — New York: Basic Books, 2000.
4. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: darslik. — Toshkent: Noshir, 2011. — 712 b.
5. Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. — Toshkent, 2020. — 788 b.
6. Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. — Toshkent: Barkamol fayz media, 2017.
7. Kichik biznes va tadbirkorlik: o'quv qo'llanma. — Toshkent, 2023.
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida 2024–yil yanvar–dekabr oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar. — Toshkent, 2025.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O'zbekiston–2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida. PF–37–son. — 2024–yil 21–fevral. <https://lex.uz/docs/-6811936>
10. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonun. O'RQ–604–son. — 2020–yil 17–fevral. <https://lex.uz/docs/-4737511>
11. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida. O'RQ–1010–son. — 2024–yil 5–dekabr. <https://lex.uz/uz/docs/-7249426>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida. PQ–306–son. — 2023–yil 14–sentabr. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6609110?ONDATE=01.01.2025>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. PF–50–son. — 2025–yil 19–mart. <https://lex.uz/docs/-7444738>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100